

## Zamonaviy Tilshunoslikda Diskurs Tushunchasi Va Uning Tahlili

*Saidova Muhayyo Umidullayevna<sup>1</sup>, Axrorova Muxabbat Xamidovna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diskurs tushunchasi, uning kelib chiqish tarixi va tahlil usullari haqida so‘z boradi. O‘z navbatida diskurs tushunchasining boshqa sohalarda qo‘llanilishi va hozirgi zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilganlik darajasi haqida ham xulosalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Diskurs, tahlil, matn, pragmalingvistika, ekstralinguistika, matn stilistikasi, muhokama.

Bugungi zamonaviy tilshunoslik sohasida diskurs tushunchasi juda keng qo‘llanilmoqda. Bu tushunchani nafaqat tilshunoslikda balki psixologiya, sotsiologiya, semantika, pragmatika kabi sohalarda ham o‘rganilayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu sohalarning har biri diskurs tushunchasini o‘ziga xos tarzda o‘rganadi va ochib berishga harakat qiladi. Dunyo tilshunoslida matn muammolari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning ko‘pchiligidagi “diskurs” termini bot-bot qo‘llanadi. Bu termin zamonaviy tilshunoslik bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy tilshunoslikning o‘zida ham yagona, ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan talqini, ma’nosи yo‘q, xilmayxil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Ba`zida diskurs atamasi shunchaki tilning amaliy ifodasi sifatida talqin qilinsa(Potter,2004; Widdowson,2007), boshqa holatlarda esa u lingvistika obyekti, gapdan kengroq ma`noga ega til hodisasi (Cameron,2001) sifatida talqin qilinadi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda “Diskurs” atamasi juda keng qo‘llanilmoqda. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og‘zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan.<sup>2</sup> Masalan, golland tilshunoslari T.A. van Deyk va V.Kinchlar “keyingi yillarda bir qator gumanitar va ijtimoiy fanlarda bog‘li nutq yoki diskursni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortgan”ligini ta’kidlar ekan, “diskurs”ni “bog‘li nutq”ning sinonimi sifatida qo‘llaydi. Bog‘li nutq deganda, albatta, matn tushuniladi, ko‘rinadiki, “matn” va “diskurs” terminlari teng ma’noli so‘zlar sifatida ishlatilgan. “Matn” va “diskurs” terminlarini bir-biridan farqli tushunchalar ifodasi uchun qo‘llash ham keng tarqalganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotchilar fransuz filologiyasida “diskurs” termini bir-biridan farqli to‘rt xil ma’noda qo‘llanishini aytadilar.<sup>3</sup> A.I.Gorshkov alohida ko‘rsatib o‘tganidek, lingvistik adabiyotlarda “diskurs” terminining qat’iy bir ma’nosи yo‘q, u ifodalaydigan hodisalar diapazoni juda keng, ya’ni “matnning qismi”dan yaxlit “nutq”qacha bo‘lgan hodisalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Tilni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda qo‘llangan: 1) so‘z muqobili; 2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatiga ta’siri; 4) suhbat; 5) nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi; 6) lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar. Bu so‘zning ma’nosи fransuzcha discours – “nutq”, “so‘zlash” demakdir.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Associate professor of English linguistics department

<sup>2</sup> Master degree student, Bukhara State University

<sup>2</sup> Xegay V. O ponyatiy diskurs // Filologiya masalalari, 2006, N 2 (11), 63-66-betlar.

<sup>3</sup> Xovanskaya Z.I. Analiz literaturnogo proizvedeniya v sovremennoy fransuzskoy filologii. –M.: Vissaya shkola, 1980.- S.143-144.

<sup>4</sup> “Diskurs”ning ma’nosи “izchil bayon; suhbat, so‘zlashuv” tarzida ham ko‘rsatiladi. Qar.: Milovidov V.A. Tekst, kontekst, intertekst: Vvedenie v problematiku sravnitel’nogo literaturovedeniya. – Tver: TvGU, 1998, s. 39.



Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnga qo‘shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo‘lganqo‘shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o‘z ichiga oladi. "Diskurs" atamasi lingvistika sohasida ham juda ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z.Xarrisning 1952 yilda nashr etilgan "Diskur tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to‘liq ko‘lami so“nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi.

Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so,,zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o,,zlar eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo,,lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha “discursus” - muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni muhokama talab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil-isbotli bilim demakdir.

Bugungi kunda olimlar “diskurs” atamasini tilning funksional xusisiyatlarini o‘rganuvchi sohalari pragmatika va uslubiyat bilan yonma yon tilga olishadi.

Tilni pragmatik nuqtai nazaridan tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarda diskurs atamasi sakkiz xil ma’noda qo‘llangan: 1) so‘z muqobili; 2) frazalardan o‘lchami bo‘yicha ortadigan birlik; 3) nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri; 4) suhbat; 5) nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi; 6)lisoniy birliklardan foydalanish; 7) fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi; 8) matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar. Diskurs atamasi matndan farqli o‘laroq, insonning ongi va tafakkuri bilan bog‘liq holda, uning lisoniy manzarasini, tafakkurini aks ettiradi deb hisoblashadi. Shu nuqtayi nazaridan, Ingliz tilshunosligida diskurs atamasi muloqotda gap mazmunidan kengroq narsani ifodalovchi, mazmuniga ko‘ra so‘zlovchi “men”i qo‘llanishi bilan bog‘liq, tashkiliy shakliga ko‘ra kommunikantlarning o‘zaro interfaol munosabatini ifodalovchi nutq tushuniladi.<sup>5</sup>

Diskurs lingvistik kategoriya sifatida murakkab va ko‘p qirrali tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Uning o‘ziga xosligi bir tomondan, muloqot va nutq, lisoniy axloq o‘rtasida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, matnda aks etishi bilan oraliqlik xarakteriga egaligi bilan izohlanadi. Tabiatiga ko‘ra, diskurs nazariyasi turli ijtimoiy gumanitar fanlarni birlashtiradi, uning yordamida zamonaviy muloqotda paydo bo‘ladigan qator muammolar yechiladi.<sup>6</sup>

Diskurs– ekstralolingvistik – pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan hosil qilingan voqeiy aspektdagi bog‘liq matn. Unda nutq uni hosil qiluvchilarning kognitiv jarayoni bilan bog‘liq ravishda maqsadli ijtimoiy xususiyat kasb etadi . Diskurs bu “voqealarga to‘la hayot”. Shu sababli ushbu atama, “matn” atamasidan farqli o‘laroq eski matnlarga nisbatan ishlatilmaydi. Chunki bunday matnlar jonli hayot bilan bevosita bog‘lana olmaydi. Diskurs nutqqa paralingvistik (mimika,jest) kabi xususiyatlarini ham olib kiradi. Ushbu belgilar nutqqa uning asosiy vazifalaridan biri – suhbatdoshga his-tuyg‘uni (ritmik,referent, semantik, hissiy-bo‘yodkor,) yetkazishga, illokutiv kuch (undov jestlari,ishontirish) qo‘shishga yordam beradi.<sup>7</sup> Bu ta`rifni chuqurroq tahlil qilish jarayonida biz diskurs atamasining nafaqat til hodisasi sifatidagi o‘rnini, balki uning zamonaviy tilshunoslikning yangi bo‘limlari hisoblangan pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslik sohasi obyekti sifatida o‘rganilayotganini ham tushunishimiz mumkin. Kognitiv nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, kognitiv tilshunoslar til tizimi umumiy kognitiv hodisalarning integratsiyasi deb hisoblashadi. Kognitiv soha, kategoriya, freym, skript, sxemalar va kognitiv rejim kabi tavsiflovchi parametrlar tilni tasvirlashda ajralmas hisoblanadi. Tadqiqot sohasining kengayishi bilan kognitiv tilshunoslik asta-sekin o‘z e’tiborini bir jumladan butun bir semantik birlikka, yani diskursga qaratadi.

<sup>5</sup> (Stubbs, 1983).

<sup>6</sup> Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике //http://vii.sfu-kras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009

<sup>7</sup> Arutyunova N.D. Discourse / Linguistic Encyclopedic Dictionary. M.:Soviet Encyclopedia, 1990. P. 136-137.



Kognitiv tilshunoslarning ta'kidlashicha, diskurs kognitiv hodisalardan iborat. Diskursni o'rganishning asosiy yondashuvi kognitiv tahlildir. Diskursni hosil qilish va undan amalda foydalanish murakkab kognitiv jarayon bo'lib, unda axborot qayta ishlanadi. Boshqacha qilib aytganda, til foydalanuvchilar diskursni hosil qilish uchun turli xil lingvistik va nolinguistik omillar haqida o'yashlari kerak. Bu Murakkab jarayon esa o'z o'zidan diskursning shunchaki ma'no va shakl tuzilmasiga ega oddiy matndan kengroq tushuncha ekanligini ko'rsatib beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, diskurs atamasi shunchaki matn bilan sinonim sifatida qo'llaniladigan atama emas, balki lingvistik nuqtayi nazardan olam va uning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi oyna vazifasini bajaradi. Diskurs atamasi fanlararo o'rganiluvchi murakkab tushunchadir. Shu sababdan ham bugungi zamonaviy tilshunoslikning turli bo'limlari xusuan matn lingvistikasi, uslubiyat, pragmalingvistika doirasida o'rganilib tatqiq qilinmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diskurs-ko'p qirrali murakkab fenomen va uni birta ta'rif bilan mukammal tavsiflash imkonи mavjud emas.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arutyunova N.D. Discourse / Linguistic Encyclopedic Dictionary. M.:Soviet Encyclopedia, 1990. P. 136-137.
2. Brown, G. and G. Yule. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press (Cambridge Textbooks in Linguistics), 1983.
3. Cook, G. Discourse. Oxford: Oxford University Press, 1989
4. Milovidov V.A. Tekst, kontekst, intertekst: Vvedenie v problematiku sravnitel'nogo literaturovedeniya. – Tver: TvGU, 1998, s. 39.
5. Xegay V. O ponyatii diskurs // Filologiya masalalari, 2006, N 2 (11), 63-66-betlar.
6. Xovanskaya Z.I. Analiz literaturnogo proizvedeniya v sovremennoy fransuzskoy filologii. –M.: Visshaya shkola, 1980.- S.143-144.
7. Исаева Е.Д. Понятие дискурса в современной лингвистике //http://vii.sfu-kras.ru/info/public/vii/book/ponyatie-diskursa-v-sovremennoy-lingvistike-2009
8. Yunusova A.A. INTEGRATING LANGUAGE SKILLS IN TEACHING ENGLISH // Теория и практика современной науки. 2018. №5 (35). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/integrating-language-skills-in-teaching-english>.
9. Yunusova A.A., Abdullayeva N. VISUAL AIDS FOR EFFECTIVE LECTURING // Теория и практика современной науки. 2018. №5 (35). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/visual-aids-for-effective-lecturing>.
10. Mazgutova, D., Brunfaut, T., Muradkasimova, K., Khodjieva, R., Qobilova, G., & Yunusova, A. (2022). Evaluating co-production as a guiding philosophy for EAP teacher training course development. *Journal of English for Academic Purposes*, 57, 101098. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1475158522000182>.

